



TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
ISSN 2992-9016

№1/2026

Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi

Ilmiy-uslubiy jurnal

Bosh muharrir:

Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:

Turayev Baxtiyor Ergashevich

Dizayner:

Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba
nashr etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

22.12. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnitirulasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:

Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)

L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)

Maxmudov N.M. – i.f.d., prof.

Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.

Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD).

Absamatov A.E. – i.f.n., dots.

Eshkarayev S.Ch. – k.f.f.d. (PhD), dots.

Ruzmetov B. – i.f.d. prof.

Xudoyqulov X.X. – i.f.d. (DSc), prof.

Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.

Xotamov O.Q. – i.f.d., prof.

Otamurodov Sh.N. – i.f.d. (DSc), dots.

Yarmatov Sh. Ch. - i.f.f.d. (PhD).

Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Shodiyev A.A. – i.f.f.d. (PhD).

Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD).

Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).

Absamatov A.E. - i.f.f.d. (PhD).

Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).

Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD).

MUNDARIJA

SH.E.BOBOMURATOVA

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....4

D.MUQUMOVA

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....12

D.B.IBODULLAYEVA

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....15

Z.M.AMIRKULOVA

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqealik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....18

M.A.MEYLIQULOVA

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....22

SH.A.DONAYEVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....25

G.E.TURAYEVA

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish28

M.X.XAYDAROVA

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....31

F.A.XAYITOVA

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....35

D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....38

F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....42

U.A.TASHBAYEVA

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....47

SH.T.TOSHOVA

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....51

R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....54

G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....58

D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....65

M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....68

M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....72

G'.A.MAMARAJABOV

Mustaqillik yillarida o'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....76

T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....80

SH.T.YAKUBOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyat shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....83

N.B.RAUPOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlariga bo'lgan munosabatini shakllantirish metodikasi ("Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" dostonlari namunalarini misolida).....86

M.SH.BURIYEVA

The role of code-switching in Uzbekistan's diverse society: identity and cultural exchange.....91

Z.M.ALLAYEV

Traditions of dream interpretations in linguoculturology.....96

Z.F.ERGASHEVA, G'.Y.SALOMOV

Ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....99

L.A.RAIMOV

A comparative analysis of ai and human translation in advertising texts.....103

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-bosqich magistranti
Ergasheva Zarnigor Fazliddin qizi
E-mail: ergashevaz075@gmail.com
Ilmiy rahbar: **Salomov G'ulom Yuldashevich**
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

ONA-TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi asoslab berilgan. Tajriba-sinov ishlari natijalari o'quvchilarning axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va xulosalash ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanganini ko'rsatdi.

Tayanch so'zlar: axborot kompetensiyasi, o'qish savodxonligi, ona-tili, metodika, funksional savodxonlik, kompetensiyaviy yondashuv.

НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЧТЕНИЯ МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются вопросы развития у учащихся компетенции в работе с информацией на уроках родного языка и чтения. В процессе исследования обосновывается эффективность применения современных педагогических подходов, интерактивных методов и информационно-коммуникационных технологий. Результаты экспериментальной работы показали, что навыки учащихся в поиске, анализе, обработке информации и формулировании выводов значительно улучшились.

Ключевые слова: информационная компетентность, грамотность чтения, родной язык, методология, функциональная грамотность, компетентностный подход.

STUDENTS' WORKING WITH INFORMATION IN MOTHER LANGUAGE AND READING LITERACY LESSONS COMPETENCY DEVELOPMENT METHODOLOGY

ABSTRACT

This article analyzes the issues of developing students' information-handling competence in mother tongue and reading literacy lessons. In the course of the research, the effectiveness of using modern pedagogical approaches, interactive methods, and information and communication technologies is substantiated. The results of the experimental work demonstrate that students' skills in searching for information, analyzing, processing, and drawing conclusions have significantly improved.

Keywords: information competence, reading literacy, mother tongue, methodology, functional literacy, competency-based approach.

KIRISH

Bugungi globallashtirish, raqamli transformatsiya va axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri – o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Zamonaviy ta'limda o'quvchining faqat bilim egallashi emas, balki axborotni mustaqil izlash, tanlash, tahlil qilish, baholash va undan amaliy faoliyatda samarali

foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda [1]. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida (2020) ta'lim jarayonida shaxsning intellektual, ijodiy va funksional savodxonligini rivojlantirish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Mazkur hujjatda kompetensiyaviy yondashuvni ta'lim mazmuniga joriy etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va axborot bilan ishlash malakalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan [2].

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning keyingi ta'lim faoliyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi sababli, aynan ushbu bosqichda axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish alohida dolzarblik kasb etadi. Ona-tili va o'qish savodxonligi fanlari mazkur jarayonda yetakchi o'rin egallaydi. Chunki bu fanlar orqali o'quvchilar nafaqat savod chiqaradi, balki matn mazmunini anglash, asosiy va ikkinchi darajali axborotni ajratish, matndan xulosa chiqarish, tanqidiy fikrlash kabi muhim kompetensiyalarni egallaydi [3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da o'quvchilarning o'qish savodxonligi va axborot bilan ishlash ko'nikmalarini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish asosiy strategik vazifalardan biri sifatida belgilangan. Mazkur konsepsiyada PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish va ularning natijalarini yaxshilash zarurligi ta'kidlangan [4].

So'nggi yillarda o'tkazilgan xalqaro tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi bevosita ularning axborot bilan ishlash kompetensiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, PISA va PIRLS tadqiqotlarida o'quvchilarning matni tushunish, tahlil qilish va baholash qobiliyatlari asosiy indikatorlar sifatida baholanadi [5]. Shu bois, ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali metodikani ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi – ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan samarali metodikani ishlab chiqish hamda uning pedagogik samaradorligini amaliy tajriba-sinov jarayonida asoslab berishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot jarayonida axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga doir nazariy va amaliy masalalarni kompleks o'rganish maqsadida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning quyidagi usullaridan foydalanildi:

1. Nazariy tahlil – pedagogika, psixologiya va metodika sohasidagi ilmiy manbalar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va umumlashtirish;
2. Pedagogik kuzatuv – ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning axborot bilan ishlash jarayonidagi faoliyatini tizimli kuzatish;
3. Suhbat va so'rovnoma – o'quvchilar va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining fikr-mulohazalarini aniqlash;
4. Pedagogik tajriba-sinov ishlari – ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini amaliyotda tekshirish;

5. Statistik tahlil – olingan natijalarni taqqoslash, foiz ko'rsatkichlari orqali tahlil qilish va xulosalar chiqarish.


Tajriba-sinov ishlari Toshkent shahridagi umumta'lim maktablarining 3–4-sinflarida tashkil etildi. Tadqiqotda jami 118 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Shundan 60 nafari tajriba guruhi, 58 nafari esa nazorat guruhini tashkil etdi. Tajriba guruhi bilan mashg'ulotlar ishlab chiqilgan metodika asosida olib borilgan bo'lsa, nazorat guruhida darslar amaldagi o'quv dasturi asosida tashkil etildi.

Tadqiqot davomida qo'llanilgan metodik yondashuv o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirishga yo'naltirildi va quyidagi tarkibiy bosqichlarni o'z ichiga oldi:

1. Axborotni izlash – matndan zarur ma'lumotlarni aniqlash va topish;
2. Axborotni tahlil qilish – asosiy va ikkinchi darajali ma'lumotlarni farqlash;
3. Axborotni qayta ishlash – olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish va umumlashtirish;
4. Xulosa chiqarish va baholash – matn mazmuniga munosabat bildirish va tanqidiy fikrlash.

Dars jarayonida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish maqsadida "INSERT", "Klaster", "Fishbone", "Matnni segmentlash", "Savol-javob zanjiri" kabi interfaol metodlardan keng foydalanildi. Shuningdek, elektron matnlar, prezentatsiyalar va multimedia vositalari yordamida o'quvchilarning axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayoni faollashtirildi [4].

Tahlil va natijalar. Tajriba-sinov ishlari natijalari ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida ishlab chiqilgan metodikaning o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqotda jami 118 nafar o'quvchi ishtirok etdi,



shundan 60 nafari tajriba guruhi, 58 nafari nazorat guruhini tashkil etdi. Tajriba boshida o'tkazilgan diagnostik test natijalariga ko'ra, tajriba guruhi o'quvchilarining axborot bilan ishlash kompetensiyasi o'rtacha 45–48 % darajada baholangan bo'lsa, tajriba yakunida mazkur ko'rsatkich 68–75 % gacha oshdi. Nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 47 % dan 52 % gacha bo'lgan o'sish bilan cheklandi. Aniqroq aytganda, axborotni mustaqil izlab topish ko'nikmasi tajriba guruhi o'quvchilarida 23 % ga oshdi. Tajriba boshida o'quvchilarning faqat 41 % i matndan kerakli ma'lumotni mustaqil topa olgan bo'lsa, tajriba yakunida bu ko'rsatkich 64 % ga yetdi. Nazorat guruhida esa mazkur ko'rsatkich mos ravishda 43 % dan 49 % gacha o'sdi.

Matnni tahlil qilish va asosiy g'oyani aniqlash ko'rsatkichi bo'yicha tajriba guruhi o'quvchilarida 27 % lik ijobiy o'sish qayd etildi. Tajriba boshida o'quvchilarning 38 % i matnning asosiy g'oyasini to'g'ri aniqlay olgan bo'lsa, tajriba yakunida bu ko'rsatkich 65 % ni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 40 % dan 46 % gacha o'zgardi. Shuningdek, xulosalash va baholash kompetensiyasi bo'yicha ham sezilarli farq aniqlandi. Tajriba guruhi o'quvchilarida mazkur ko'nikma 19 % ga oshib, 36 % dan 55 % gacha yetdi. O'quvchilar matn mazmuniga shaxsiy munosabat bildirish, o'z fikrini asoslash va baholashda faolroq ishtirok eta boshladilar. Nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 35 % dan 41 % gacha bo'lgan o'sish bilan cheklandi. Kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi darslarida o'quvchilarning faolligi sezilarli darajada oshdi. Jumladan, dars jarayonida savollarga javob berishda faol ishtirok etgan o'quvchilar ulushi 32 % dan 61 % gacha ko'tarildi. Bundan tashqari, yozma topshiriqlarda mantiqiy xatolar soni tajriba yakunida 1,8 baravarga kamaydi. Olingan natijalar taqqosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy yondashuv asosida olib borilgan nazorat guruhi bilan solishtirganda, ishlab chiqilgan metodika asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda sezilarli ustunlikka ega. Bu holat taklif etilayotgan metodikaning pedagogik samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Muhokama. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida axborot

bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda an'anaviy o'qitish yondashuvlari yetarli samara bermasligini ko'rsatdi. Nazorat guruhida kuzatilgan past o'sish sur'atlari (5–6 %) o'quvchilarning asosan reproduktiv faoliyat bilan cheklanganini, axborotni mustaqil tahlil qilish va baholash ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganini tasdiqlaydi. Bunga qarama-qarshi ravishda, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan va interfaol metodlarga tayangan darslar o'quvchilarning bilish faoliyatini sezilarli darajada faollashtirdi. Xususan, "INSERT", "Klaster", "Fishbone" kabi metodlar o'quvchilarning matn bilan ishlash jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlab, ularning mustaqil fikrlashi, mantiqiy xulosalar chiqarishi va o'z pozitsiyasini asoslab berish qobiliyatlarini rivojlantirdi. Bu holat kompetensiyaviy yondashuvning samaradorligini ta'kidlagan mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar xulosalari bilan mos keladi [5].

Shuningdek, tadqiqot jarayonida elektron matnlar, multimediya vositalari va raqamli resurslardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirganligi kuzatildi. Tajriba guruhi o'quvchilarida darsdagi faollikning oshishi (32 % dan 61 % gacha) raqamli vositalarning motivatsion ahamiyatga egaligini ko'rsatadi. Bu natijalar OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli resurslardan maqsadli foydalanish o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash kompetensiyasini rivojlantirishi haqidagi xulosalar bilan hamohangdir [6].

Bundan tashqari, olingan natijalar PISA va PIRLS xalqaro baholash dasturlarida ilgari surilgan o'qish savodxonligi talablari bilan uyg'un ekanligi aniqlandi. Mazkur dasturlarda o'quvchining matndan axborotni topish, tushunish, tahlil qilish va baholash qobiliyatlari asosiy indikatorlar sifatida belgilangan bo'lib, tadqiqot davomida qo'llanilgan metodika aynan ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qildi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari ona-tili va o'qish savodxonligi darslarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, interfaol va raqamli ta'lim vositalaridan tizimli foydalanish o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkonini berishini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning

axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodikaning yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Tajriba-sinov ishlari davomida ishlab chiqilgan metodika asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, matn bilan ishlash jarayonida mustaqillikni kuchaytirish hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, mazkur metodika:

1. O'quvchilarning funksional savodxonligini oshiradi, ya'ni ularning o'qilgan matndan kundalik va o'quv faoliyatida samarali foydalanish qobiliyatini rivojlantiradi;
2. Mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, o'quvchilarning axborotni tahlil qilish, baholash va xulosalash ko'nikmalarini shakllantiradi;
3. Xalqaro baholash dasturlariga (PISA, PIRLS) tayyorgarlikni kuchaytiradi, chunki metodika mazkur dasturlarda belgilangan o'qish savodxonligi indikatorlari bilan uyg'unlashgan.

Shuningdek, tadqiqot davomida interfaol metodlar va raqamli ta'lim resurslaridan tizimli foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirishi, ularning axborotni tanqidiy baholash kompetensiyasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Mazkur metodikani umumta'lim maktablarining ona-tili va o'qish savodxonligi darslari amaliyotiga joriy etish, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqishda foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Tadqiqot natijalari kelgusida boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni yanada takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- [1] O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrir). – Toshkent, 2020.
- [2] Karimova S. Ona tili o'qitish metodikasi: oliy pedagogik ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
- [3] OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework: Reading, Mathematics and Science. – Paris: OECD Publishing, 2019.
- [4] Jo'rayev R. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar: o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2021.
- [5] Abduqodirov A. Kompetensiyaviy yondashuv asoslari: nazariya va amaliyot. – Toshkent, 2020.
- [6] Mullis I. V. S., Martin M. O., Foy P., Hooper M. PIRLS 2021 International Results in Reading. – Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, 2022.